

IJODIY PARVOZ

2021-yil mart № 3 (95) dsmi.uz @ nashriyot@dsmi.uz ijodiyparvozgazetasi



SEN BAHORNI SOG'INMADINGMI

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.

Yonog'ingdan rang olgan dedim —
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
— Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uzoqlarda zavorli tog'lar
Xayolimni keldilar bosib.

Kechdi qancha intizor chog'lar,
Vasling menga bo'lindi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
— Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'ngirlarda sakraydi ohu,
Na'matakka sa'va mittijon.

Qorliklardan sipqorilgan suv,
Daralarda uradi javlon.

Nigohimdan faqat sen pinhon,
— Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun Navro'zi olam,
Do'stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrim bo'yil chorlab o'tarman,
— Sen bahorni sog'inmadingmi?

Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni,
O'zbekiston xalq shoiri



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Xalqaro xotin-qizlar kuni"ga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Institut rektori Ibrohim Yo'ldoshevning xotin-qizlarga yo'llagan bayram tabrigini Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektor Eldor Shermonov o'qib eshittirdi. Nozik xilqat egalari mo'tabar bayram bilan muborakbd etildi.

Vatanga muhabbat, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlarning bir guruhiya institut rektorining tashakkurnomasi berildi.

Madaniyat vazirining bayram munosabati bilan ilm, fan va boshqa jabhalarda o'rnak bo'layotgan xotin-qizlarga yuborilgan tabriknomalari o'z egalari yetkazildi. Qimmataho bayram sovg'alari ulashildi.

Kengaytirilgan bayram dasturidagi chiqishlarda go'zal kuy-ko'shiqlar ijro etildi. Ayolni, muhabbatni madh etuvchi qo'shiqlar yangradi. Institutning professor-o'qituvchilari, talabalari tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.



"SAHNADA YASHASH KERAK!.."

Shukur Burhonov 1910-yil 15-sentyabrdan Toshkent shahrida tug'ilgan. U bolaligidan san'atga, xususan, aktyor bo'lishga qiziqqan. Shu boisdan yoshligidanoq teatr to'garaklariga qatnashib yurgan. 17 yoshdan boshlab Shukur Burhonov hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatrida ishlay boshlagan. U ushu teatrda faoliyati davomida ellikdan oshiq spektakllarda ishtirot etgan. Ular orasida Mirzo Ulug'bek, Gamlet va Sulaymon ota kabi obrazlari bilan tomoshabinlarning mehrini qozongan hamda ularning olqishiga sazovor bo'lgan. Aktyor faoliyati davomida yigirmadan oshiq filmlarda ham suratga tushgan bo'lib, ular orasida Qora botir, Yusuf yalangto'sh kabi bir necha takrorlanmas rollarni ijro etgan. Shukur Burhonov o'z faoliyati orqali 1959-yilda O'zbekiston xalq artisti unvonni hamda o'limidan so'ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

Shukur Burhonov 1943-yilda Shakarxon ismli ayol bilan turmush qurgan. Ular ikki qiz va bir o'g'il farzandli bo'lishgan. Aktyor hayotida juda og'ir judoliklarga uchragan. 1982-yilda uning Shavkat ismli yolg'iz o'g'li 36 yoshida oq qon kasalligi sabab olamdan o'tadi. Keyinroq esa 9 yoshli kenja qizi Shahnozaxon filmga suratga tushish chog'ida suvga cho'kib, fojiali halok bo'ladi. Ana shu yo'qotishdan keyin u og'ir xastalikka uchrab, to'shakka mixlanib qoladi. Oradan biroz vaqt o'tgach, ya'ni 1987-yil 15-avgustda vafot etadi.

Shukur Burhonov o'gitlari bilan 3-sahifada tanishasiz.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida zamonaviy ta'lim dasturlari amalda

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalar ekanini yana bir bor ta'kidlab o'tgan edilar.

Bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekistonda yangi dasturlar asosida xorijiy tillarni o'rganish xalqimiz orasida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida muhim maqsadlardan biriga aylandi. Agar siz bugungi shiddat bilan rivojanayotgan jamiyatda o'z o'rningizni topish, dunyoviy bilimlarni egallash istagida bo'lsangiz, u holda ingliz tilini bilishingiz muhimdir. Zamonaviy bilim-ko'nigmalar hamda xorijiy tillarni o'rganish natijasida sizning kommunikativ imkoniyatlaringiz oshadi, nufuzi baland ishga joylashish yoki o'z biznesingizni tashkil etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Zero, mamlakatimizda xorijiy davlatlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalari o'matilib, ko'plab yangidan yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Mana shunday yirik loyihalardan biri "Creative Spark – Olyi ta'lim o'quv dasturi" loyihasidir. Loyihaning asosiy maqsadi Buyuk Britaniya tajribasi asosida yurtimizdagisi yoshlarga tadbirkorlik faoliyatida fikrashni rivojlantirish, ijodiy tadbirkorlik ko'nigmalarini o'rgatish, g'oyalarini biznes loyihalarga aylantirish, qolaversa, yoshlardi til bilish darajasini oshirisha ko'maklashishdan iborat.

Institutimiz hamda O'zbekistondagi Britaniya Kengashining tashabbusi bilan

"Creative Spark – Olyi ta'lim o'quv dasturi" loyihasi asosida "English club" nomli maxsus inglez tili kursi joriy etildi. Sentabr oyida dars mashg'ulotlarini olib borish uchun munosib pedagoglarni tanlash bo'yicha suhbat jarayoni bo'lib o'tdi. Quvonlar jihat shundaki, ko'plab olyi ta'lim muassasalarini pedagoglari orasidan aynan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti inglez tili fani o'qituvchisi Nodira Ishanbekova munosib deb topildi. Hozirgi kunda ushbu malakali pedagog yordamida talabalar o'z bilimlarini oshirmoqdalar. Kursda talabalar o'zlarining inglez tili bo'yicha tajribalarini yanada oshirish hamda yangicha usullarda tilni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. E'tiborli jihat, aynan hozirgi kunda onlaysiz tizimga moslashgan bo'lib, yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi, desak mubolog'a bo'lmaydi. Talabalarga o'tiladigan mavzular ham oddiy, ham o'rganish uchun qulay va aynan hozirgi kunga mos qilib tanlangan. O'tiladigan mavzular orqali talabalar inglez tilida erkin fikrlay olishi, so'zlashi olishi, ijodiy tadbirkorlik sirlarini egallashi va amaliyotga tadbiq etish yo'llarini o'rganadilar.

Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari

va talablar mavjud. Agar siz bugungi shiddat bilan rivojanayotgan jamiyatda o'z o'rningizni topish, dunyoviy bilimlarni egallash istagida bo'lsangiz, inglez tilini bilish juda muhimdir. Ushbu kursning afzalliklari shundaki, talabalar unda o'zlarining fikrilarini qay tarzda boshlashlari, omma oldida qanday gapirish, gapning ohangi, iboralardan foydalananish, ishga joylashishda aytildigan zaruriy so'zlar kabi mavzular o'rgatiladi.

Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy o'z davlat yoshlarga murojaat qilib, "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et", deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur tarqatishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o'zlashtirishi lozim.

"Hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal o'rganmasdan turib, buyuk bobomiz aytgan ana shunday marralarga erishib bo'lmaydi, desak, adashmagan bo'lamiz. Darhaqiqat, mamlakatimizda biz yoshlarga keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Endi biz yoshlar ham yurtbosimizning tashabbuslariga, yurtmizni kelajagini porloq qilishdek buyuk maqsadlariga ishonz bilidigan holda vatanimiz taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shamog'imiz lozim.

Kamoliddin UMAROV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistranti.



Fransiyadagi IASKA –
Xalqaro fan, madaniyat va san'at akademiyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti murabbiylar kengashi raisi, "Folklor va etnografiya" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi Sunnatillayev Asatilla Sunnatovichni ilm-fan, madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro xizmatlari uchun ta'sis etilgan "Hurmat va sadoqat" ordeni bilan mukofotladi. Orden Parij shahridan O'zbekistonga yuborildi.

Institut nomidan xodimimizn ushbu mukofot bilan qutlaymiz.

RAHBARIYAT

XALQARO FESTIVAL

2021-yil 13-30-aprel kunlari Rossiya Federatsiyasi Madaniyat vazirligi, Rossiya Federatsiyasi Teatr arboblari ittifoqi taklifiiga binoan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi xalqaro tashkilotining Madaniyat va san'at ta'limi bo'yicha Jamoatchilik Kengashi a'zosi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi Temur Rashidov badiiy rahbarligidagi ijodiy jamao XVII Moskva Xalqaro talabalar spektakllari festivalida "Turandot" spektakli bilan ishtirok etadi.

Festival dasturiga dunyoning yetakchi teatr ta'lum muassasalarining eng yaxshi spektakllari tanlov asosida kiritilgan (Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, O'zbekiston, Bolgariya, Polsha, Xorvatiya, Latviya, Singapur va boshqa davlatlar).




Faxrimiz



Xolmirzayeva Nigina Zoxiddin qizi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti 2-bosqich talabasi.
N.Xolmirzayeva 2021-yili 15-martda Ukraina Respublikasining Xarkov shahrida Cholg'u yo'naliishi bo'yicha o'tkazilgan "PRO ARTIST" Xalqaro masofaviy ko'rlik-tanlovida ishtirok etib, faxli 1-o'rinn sohibi bo'ldi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" yo'naliishi 1-bosqich talabasi Arslanbayeva Munisa "Scientific-progress" xalqaro jurnali tomonidan o'tkazilgan maqlolar tanlovida "Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyatimizga salbiy oqibatlari" nomli maqolasi bilan ishtirok etib, "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasi g'olib bo'ldi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi
Ermuhammadov Islomjon Cholg'u ijrochiligi bo'yicha Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan "Qaldirg'ochlar" nomli IV Xalqaro ko'rlik-tanlova faxli 1-o'rinni qo'liga kiritdi.



APREL...

Samo

Bag'rim kabi kengdir; qalbim kabi bo'sh, Tongda quyosh yolg'iz, tunlar oy jindir. Huyllagan ko'kda darbadar kezam, Ko'zim uchib borar, uchramas kimdir.

Aprel

Zaminni qopladi bahor ohista, Tabiat mudroqda, ko'zlarda g'ubor. Kimdir qayerdadir uxlarmi hamon, Ozing uni sekin uyg'otib yubor.

Vayig'lolmayapti, samo jim, tingan, Ko'zim ummonida qurigandek sel. Hamon intiq qildi ko'zin yoshiga, Ruhim poklaguvchi yomg'ir bilan kel.

Aprel

Hamon vujudimga kirolmas bahor, Ammo qahratonga umrimni bermam. Ichimni to'ldirgin, Tangrim, sujudga, Yuragimdan chiqib ketguncha fevral.

Men kutdim, biz sevgan o'shal yomg'irni, Samo bo'shab borar shamol dastidan. O'zim g'amdan sharros yog'ilaman va O'sha kimdir kelar yomg'ir ostida...

Niyatullo ELBEK o'g'li

1994-yili 29-sentyabrida Navoiy viloyati, Xatirchi tumanida tug'ilgan. Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti talabasi.

Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi (2019)

So 'nggi qo 'ng 'iroq

Orta qoldi yoshligim quvnoq, Vujudimda hayajon, tiroq, Yana bir yosh ulg'aydik biroq, Jaranglaydi so 'nggi qo 'ng 'iroq.

Qani qaytsa bu yoshlik damlar, Unutilsa dildagi g'amilar, Hech o'chmasa bu yongan shamlar, Jaranglaydi so 'nggi qo 'ng 'iroq.

Ta'zimdamiz sizga ustozlar, Oq'yo'l tilang bizga ustozlar, Parvoz qildik ko'kka ustozlar, Jaranglaydi so 'nggi qo 'ng 'iroq.

Koshki o'ylaringni etmasaydim band yoki sanolaring tinglamasaydim. Meni do'zaxda ham sevguvchi Xilqat, nahot, kelaversam yodingga qaytib?

Poyimda maysalar shivirlasa – mast, ortimda ingrasha ezgin yomg'ir-do'l. Sendan kechmoq uchun – ismsiz, besas, netay, topolmasam umrimda bir yo'l?

Bormi bu tariqat so 'nggida ma 'no? Ruhimga bosilgan tamg'a – ishq qani va qurbim yetarmi, chorlasa Fano, Seni bu dahr aro tashlab ketgani!?

Kutasan – ertaga bormanmiyo 'qmi, tan olmay bugun ham borolmasligim. Qalbingga bog'larning kelarmi rahmi balki qo'msab o'tsam Tangri vaslini?

Qolmasa qarshimdan chiqquvchi xarsang, o'chsa nigohingga botgan tun – riyo. Axir, bahor kelgan o'laman desam, ketay desang gulga burkangan dunyo!

Muhammad SIDDIQ

2000-yil Farg'onada viloyati, Toshloq tumanida tug'ilgan. "Respublika yosh ijodkorlar forumi" (2017), "Zomin seminari", "Samarqand she'r oqshomlari" (2018), "O'zbekiston bahori", "Toshkent ilhomlari" (2019) kabi anjumanlar ishtirokchisi. Respublika Yosh ijodkorlar Kengashi tomonidan o'tkazilgan she'riy "Duel" tanloving birinchi mavsum g'olib. Hozirda Sahna va ekran dramaturgiysi fakulteti talabasi.

Xush qol endi aziz sinfdosh, Bizlar edik qadrond, sirdosh, Berarmikan bu yurak bardosh, Jaranglaydi so 'nggi qo 'ng 'iroq.

Maktab, sensan dildagi chiroq, Ketib qolma yonimdan yiroq, Cho'lg'amasin bizlarni firoq, Jaranglaydi so 'nggi qo 'ng 'iroq.

Lobarxon AVAZOVA,
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti
1-bosqich 102-guruh talabasi

2021-yil 12-mart kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda xotin-qizlarning kreativ tadbirkorlik va kreativ ta'lif yo'naliishlarida imkoniyatlarini kengaytirish" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy vebinar bo'lib o'tdi.

XOTIN-QIZLARNING KREATIV TADBIRKORLIK VA KREATIV TA'LIM YO'NALISHLARIDA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALALRI

Tadbirdi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Sobirjon Jumayev kirish so'zi bilan ochdi va O'zbekistonda xotin-qizlarning tadbirkorligini rivojlantirishdan yuzaga kelayotgan muammolarni bar-taraf etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotganligini ta'kidladi.

Xalqaro ilmiy-amaliy vebinar doira-sida xotin-qizlarning kreativ tadbirkorligini kengaytirishda Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining roli haqida Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi kotibiyatining bosh maslahatchisi Nodira Shotursunova nutq so'zladi.

Vebinarda Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rbinbosari Jamila Gulyamova tomonidan "Creative Spark - Oliy ta'lif dasturi"ning maqsad va vazifalari mavzusidagi ma'ruba tinglandi. "Xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishda Creative Spark loyihasi va Britaniya tajribasi bizga ko'p narsani o'rgatadi. Biz 26-fevral kuni O'zbekistondagi barcha Oliy ta'lif muassasalari va Buyuk Britaniyaning 8 ta oliy ta'lif muassasalari bilan xotin-qizlarni o'qitish va bilimini oshirish tog'risida davra suhbat o'tkazgan edik. Jumladan, yurtimizda xotin-qizlarni o'qitish, ularni har jahbada faol bo'lishlari uchun katta islohotlar olib borilmoqda. Bugungi vebinarda ham gender tenglik naqadar muhim ekanligi haqida so'z boradi", deydi Jamila Gulyamova o'z ma'rurasida.

Vebinarda "Xalq banki" ATB mas'ul xodimi Gulbahor Abdujalalova ham ishtiroy etib, tadbirkor ayollarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda bank tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Vebinarda "Tadbirkor ayol" ishbilarmon

ayollar assotsiatsiyasi koordinatori Muqaddas Xusanova O'zbekistonda kreativ tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ayollarni qo'llab-quvvatlashda "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasining o'rni tog'risida so'zlab, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qulay kreditlar va ko'plab grandlar joriy etildi, – deya ta'kidladi.

London Goldsmith universiteti direktorining kreativ va madaniyat ishlari bo'yicha o'rnbosari Sian Prime "Xotin-qizlarning kreativ ta'lif va kreativ sanoatdagi imkoniyatlarini kengaytirish" mavzusida ma'ruba qildi. Hozirgi kunda Buyuk Britaniyada ayollarni o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish yuzasidan ko'pgina ishlar amalga oshirilayotganligini, O'zbekistonda ham bu muammo dolzarb ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, u Britaniyaning O'zbekistondagi vakolatxonasiga, Londonning Goldsmith universiteti rahbariyatiga, "Xalq banki" ATBga, "Tadbirkor ayol" ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi hamda institut rahbariyatiga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu vebinarda xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etish, san'at va madaniyat sohalarida kreativ tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha fikrlar bildirildi. Vebinar ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan Sian Prime xonimga murojaat qilishdi va o'z savollariga javoblar olishdi.

Muslima ALIYEVA,
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti
3-kurs talabasi



Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbus yoshlarga kasb-hunar o'rganishiga ko'mak berib, imkoniyatlар eshigini baralla ochdi desak, mubolag'a aytgan bo'lmaymiz. Yurtboshimizning da'vatiga amaly yondashish uchun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialida "Chevar qollar" markazi tashkil etildi. Markaz madaniyat kutubxonalar, axborot faoliyati kafedrasi katta o'qituvchisi G.Yeshbayevanining tashabbusi bilan talaba qizlarining bo'sh vaqtini samarali ishlarga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tikuv-trikotaj ishlarini o'rgatish maqsadida ochildi.

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri Q.A.Turdiyev, filial direktori A.T.Ayapov va professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar ishtiroy etishdi. Markazda talaba yoshlarga milliy kiyimlar va sahna bezagi uchun zarur bo'lgan buyumlarni tikish, bichish va to'qish sirlari o'rgatiladi. Hunar o'rganuvchi yoshlar olti oy mobaynida nazariy va amaly bilimlarni oladi va yaxshi o'rgangan chevarlarga sertifikat beriladi.

– Qizlarimizga kasb-hunar, tadbirkorlik, startap loylilarini o'rgatishimizni zamonning o'zi taqozo etmoqda. Hozirgi kunda talaba qizlarni o'shimcha ish bilan ta'minlashga ko'maklashish biz pedagoglarning vazifasi hisoblanadi. Yoshligimda yaxshigina tikuvchi bo'lganman. Endi bor iste'dodim va tajribamni yoshlarga o'rgatishga harakat qilaman. Markazni tashkil etishda jonbozlik ko'rsatgani va qo'llab-quvvatlagani uchun direktorimiz A.Ayapovga alohida minnatdorchilik bildiraman, – deydi G.Yeshbayeva.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni o'z mehnati bilan katta yutuqlarga erishishga motivatsiya berib, kasb-hunar va biznesga tayyorlash yaxshi samara berishi aniq. Talabalarning g'ayrat-shioqatini, kuch-g'ayratini to'g'ri ta'lif-tarbiyaga yo'naltirsak, albatta, Vatanimizning ravnaqiga munosib hissa qo'shadilar. Tadbir so'nggida markazga filial kasaba uyushmasi tarafidan tayyorlangan sovg'alar topshirildi.

Asilbek QOLQANATOV,
O'zDSMI Nukus filiali talabasi

Shukur BURHON o'gitlari



"SAHNADA YASHASH KERAK!..."

Aktyor, umuman, ijodkorda ichki me'yor hissi bo'lishi kerak. Bu me'yor hissi – mezon, ijodkorning tosh-u tarozusidir...

* * *

Dunyoga Abror Hidoyatovdek aktyor qaytib kelmaydi. U sahnaga chiqadigan kun, otasi tirilib kelsa ham, ortiqcha gap qo'shmas, erta tongdan o'sha obraz ruhi va qiyofasiga kirib yashar edi. U sahnaga bor kuchi bilan tashlanadigan san'atkor edi. Ya'ni, Mirtemir aymoqchi, Abror Hidoyatov sahnaga chiqsa, go'yo: ... ko'kdan chaqmoq tushardi.

Anov-manov odamning sochiga oq tushadi.. Men uning qavatida edim. U kishiga izma-iz borgan bilan, ijodda o'z yo'lim, uslubim bor edi. Qolaversa, haddimni bilardim...

* * *

Og'adan (M.Uyg'ur) bosiqlikni, hissiyotni jilovlay bilishni, ovoz ohanglariga qunt bilan ishlov berishni, Yetim aka (Ye. Bobojonov) dan sinchkovlikni, ya'ni hayotni o'rganishni, Abror akamdan (A. Hidoyatov) jo'shqinlikni, voqelikni tomoshabinga yetkazishdagi kuch-g'ayratni, shioqatni o'rgandim...

* * *

Sahnada rol o'ynashmas, yashash kerak! Sen "artist" emas, aktyorsan! Shuni esdan chiqarma!

* * *

Artistda talant bo'lishi mumkin. Husn, chiroy, qaddi- qomat... Lekin "oboyniya" (odamni o'ziga tortish kuchi, joziba) bo'lmasa, hammasi bir pul!...

* * *

Ochiqchasiga gaplashaylik, har bir inson kabi men ham shuhratni yaxshi ko'rardim. Menga mol-dunyo, huzur-halovat kerak emasmidi?!

Navqiron yoshimda men ham radio, televide niye va kino bo'ylab zir yugurib, muqaddas ijod yo'liga safarbar etilgan umrimni goh arzon-garov yo'qotib, keragicha pul va "shuhrat" topishim hamda farog'atda yashashim mumkin edi. Sahna bizga osonlikcha bo'ysunganmi? Aksincha, qiyinchiliklarni, har qancha iqtisodiy tanglikni bizdan so'rang!..

* * *

Moskva Badiiy teatrining spektakllari ko'plar qatori men uchun ham o'ziga xos universitet bo'ldi. Ruben Simonov, Mixail Kedrov, Ivan Bersenev bilan do'stligim mening ijodiy biografiyamda sezilarli iz qoldirdi.

Biz bir-birimizning muvaffaqiyatlarimizdan, teatr, kinodagi yutuqlarimizdan quvonib yashardik...

* * *

Artist degan zot shu narsani bilvolishi kerakki, bu – yonish degan narsa yo'q joydan vujudga kelmaydi. Buning uchun zamonning, xalqimizning yuragiga, tuyg'ulariga chuqur kirib borish, ularning dardi – quvonchlarini qalbdan kechirish, hayotiy qilib ifoda etish kerak bo'ladi. Ellik yildan ziyod vaqt ichida sahnada va kinoda o'ynagan rollarim ichida men uchun, ayniqsa, birovlarning dardiga, tashvishiga loqayd qaramagan, yuragi hamma uchun ochiq bo'lgan kishilarning obrazlari ardoqlidir...

Men bilan gaplashayotganingiz uchun Aznaur polvonni durust degandek bo'lyapsiz. Yuz-xotirimni qilmay gapiravuring. Bo'shmi, obraz? Bo'sh! Nega o'ynadingiz deng, men javob beraman. Yormatov qo'ymagandi. Har yakshanba kuni uymiga kelardi. "Sensiz kino olmayman", derdi. Mening: "Axir ssenariy bo'sh-ku!" – deb jahlim chiqsa, u "Shukur, men biron marta ssenariy bo'yicha film o'rganimni bilasammi? Ssenariy o'zgaradi, boyitaman. Zo'r bo'ladi", – deb turib oldi. Bir gal o'sha zaif ssenariyning mualliflaridan biri, kattakonrog'ini ham boshlab keldi. Shunda men ssenariyni biroz tanqid qilgandim, bir-ikki taklifimni aytgandim, tutaqib ketdi. "Ti toje pisatelem stal chto-li?" – deb kesatdi. "Borey", – dedim-u, aralashmadim. Oqibat, mana shunaqa bo'lib chiqdi... Ssenariy puxta bo'lishi kerak, rejissura zo'r bo'lishi kerak! Aktyor uni o'zining ijrosi bilan boyitadi...

Qalbdan chiqqan Vatan madhi



Biz shoir Muhammad Yusuf she'rlarini sevib o'qib, yod olib voyaga yetdik. Bolalikdan dilimizga sirdosh bo'la olgan onamizday dardkashimiz, kezi kelganda, dalda hayotning muammoli so'qmoqlarida mayoq bo'lib, to'g'ri yo'l ko'rsata olgan bunday she'rlar nafaqat o'zbekistonliklar uchun, balki butun bashariyat uchun yaqin ko'makdosh bo'la olishi shubhasizdir. Chunki Muhammad Yusufning har bir satrida nafaqat o'zbeklarning, balki barcha insonlarning orzu-umidlari, quvonch va tashvishlari aks ettirilgan.

Shoir ijtimoiy hayotning turli nuqtalarini qalamga olib, shoirona sehr bilan talqin qilib, kitobxon qalbiga joylashga harakat qilar ekan, ular orasida ayniqsa, ona Vatan mavzusi alohida nurli sahfalarni tashkil etadi:

*O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonio to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rksam,
Rimi alishmasman bedapoyangga.*

(“O'zbekiston” she'ridan)

Shoir she'rlari oson o'qiladi, tez yodimizda qoladi. Hayotiyligi va har bir insонning qalbida kechadigan mushtarak tuyg'ular bo'lgani uchun oson tushuniladi. Aslida, shoir misraning so'nggida “Rimni alishmasman ona yurtimga yoki O'zbekistonga” deb yozishi ham mumkin edi-ku. Qarang, shu misrada “bedapoya” so'zinining qo'llanishi ham favqulodda o'ziga xoslikning bir ko'rinishi bo'lib, o'quvchiga engil qiyoslash imkoniyatini beradi. Shoir bu so'zni qo'llash orqali ham o'z mahoratini namoyish etgan hamda Vatan bag'ridagi bir qarich yerni o'zga buyuk bir yurtdan kam emasligini ko'rsata olgan. Yoki boshqa bir bandda:

*Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing
Arab ohusidan azizroq menga.*

Bunda kishi xayoliga kelmaydigan, bir qarashda arzimas bir detalni qo'llab, uning o'zga yurtlardagi dongdor unsurlardan yuqori qo'yilishi faqatgina nozikqalb, tug'ma iste'dod egalarigagina xosdir.

*Vatan yuragimning olampanohi,
Bu dunyo bukri bir jiydaning shoxi,
Ko'zim yoshi bilan sug'orib gohi,
Ko'ksimda o'stirgan gulday sevaman.*

*Bu yorug' dunyoda yo'g'-u borimsan,
Tilimning ostida momiq – zarimsan.
Sen mening yagona payg'ambarimsan,
Men Bilol, men habash – quiday sevaman.*

Vatan Muhammad Yusuf ta'biri bilan aytganda, iddaolarsiz, balandparvoz so'zlarsiz jo'n sevilishi

zarur. Vatan qalbining olampanohi, uni ko'ksida o'stirayotgan gulday asrab-avaylashi lozim.

*Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonom.
O'zim – xoqon, o'zim – sulton,
Sen – taxi Sulaymonim.*

*Yolg'izim, yagonam deymi?
Topingan koshonam deymi?
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'iimsan, Vatanim.*

Aytishlaricha, agar Olloh iste'dod bermasa, tunu kun qalam tebratsang ham bir misra yozolmaysan. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning yigirmaga yaqin she'riy to'plamlari chop etilgan. “O'zingdan qo'ymasin, xalqim”, “Osmonimga olib ketaman”, “Ko'nglimda bir yor”, “Erka kiyik” va boshqa she'riy to'plamlarida ham Vatanni madh etuvchi she'rlari maromiga yetkazib yozilgan.

Muhammad Yusuf bir uchrashuvda “Shoir she'rnin bir o'zi yozmaydi. Unga ilhom parilari yordam beradi, g'oyibdan kuch keladi. Agar shunday bo'lmasa, nega shoir o'zi yozgan she'rnini o'zi o'qib, o'zi yig'laydi?” degan edi. Shoir qisqa umri davomida sermahsul ijod etdi. Xalqining ko'nglini ola bildi. O'zi tug'ilib o'sgan yurtini, tuprog'ini yuksaklarga ko'tara oldi.

Shoirming ustoz, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Muhammad Yusuf haqida shunday deydi:

Muhammad Yusuf o'z ijodida ona yurtini madh eta olgan va uning ta'rifini maromiga yetkazib aya olgan shoir. Bugungi kunda Muhammad Yusuf she'riyati xalqimizning mulkiga aylandi. Bu she'rlar avlodlar qalbida abadiy yashab, ularning qo'lida mayoq bo'lib, qalblarni she'riyat bo'stoni tomon yoritib turadi. Zero, qalbdan chiqqan so'z qalbga yo'l oladi.

Shoir quyidagi she'rida O'zbek o'g'lonlariga xos xislatlarni keltirib, ularni mardlikka chorlaydi:

*O'g'il bo'lsang o'jar bo',
Shamoldek yel, suvdek tosh,
Hech kimsaga bukma bosh,
Cho'rtkesar bo', qaysar bo',
Olov bizga qarindosh –
O'g'il bo'lsang o'jar bo'!*

Sevimli shoirimizing she'rlariga musiqa bastalab, qo'shiq qilib kuylagan xonandalar ham shoirimizga muxlisdirlar. Ularning ijrosini tinglagen har bir qalbda, albatta, Vatan tuyg'usi yanada jo'sh uradi.

**Shahrizoda BEKNAZAROVA,
Kutubxona – axborot faoliyati
fakulteti 2-kurs talabasi**

Biz ilmiy ish qilishni sharaf emas, majburiyat deb hisoblaymiz. Sababi, ertaga buning uchun bizdan yuqoriqdagilarga hisobot berishimiz kerak. Qanday masalani ko'tarib chiqyapmiz, nimalarni qoralayapmiz, buning unchalik ahamiyati yo'q. Muhimi, hisobot varog'ida qilingan ishlar yuzasidan qandaydir ikki yoki uch xonali son porlab tursa-yu, ko'ngil xotirjam bo'lsa, bas.

Ilm – majburiy yo'lim

Buyoqda esa sohaning ko'zni qamashtiragan muammollar mardikor bozordagi o'z xizmatini taklif etayotgan ishchilar singari saflanib turishadi. Muammolarga ko'z yumib, ularni keyingi avlodga meros qilib qoldiramiz. Bizdan o'nak olayotgan keyingi avlod esa bu burchni undan keyingilariga qoldiraveradi...

Oddiygina misol, bitiruvchi kurslarning diplom ishlari o'zlar o'rganishni istagan mavzuda emas, kimdir tasdiqlab bergan ko'rinishda havola etiladi. Alaloqibat, ular yozgan yoki kimgadir yozdirgan malakaviy ishlari shifik javonining to'ridan o'rin egallagan qoladi. Men madaniyat va san'at sohasida ta'llim olayotganim uchun shu soha bo'yicha fikrlarimni oydinroq bayon qila olishim mumkin. Boshqa sohalar haqida tushunchaga ega bo'lmasdan, ularning maydoniga o'tlab keta olmayman. Madaniyat va san'at oliyohohni bir yilda kamida besh yuz oltin davr sohiblari tamomlaydi. Magistratura, undan yuqori “tura”lar bilan bu son yanada oshadi. Ularning hech bo'lmaganda chorak qismi biror dolzarb muammoni yoki qolganlar uchun foydali bo'lgan masalani yaxshi yoritib bera olganida, yoinki biror mavzuni mukammal o'zlashtira olganida, bugun o'zimizning ayrim rejissyorlarni la'natlab, turklarning oldiqochdi seriallariga mukkasidan

ketmagan bo'lardik balki. Men qattiqroq shamol bo'lsa, qulab tushadigan ahvoldagi madaniyat markazlarini, tomoshabinlari asosan, keksa yoshdagilardan iborat teatrлarni, “konfet” orqasidan filmlarni qatorlashtirib, yoshlар asosan, eng orqa qatorlardan o'ren egallaydigan kinoteatrлarni, huvillab yotgan muzeylarni ko'rib achinaman.

Sohaga oid ta'llim maskanlaridagi ilmiy darajaga ega ustozlarni hurmat qilgan holda aytilishim mumkinki, ko'pgina qo'shtirnoq ichidagi malakali pedagoglarning dasta-dasta yozganlarini varaqlab, beixtiyor sitramon ichgisi keladi kishining.

Sohani rivojlantirish borasida to'xtab qoldik deya olmayman. Qator ishlar amalga oshirilmadqa, turli qaror, farmonlar e'lon qilinmoqda. Lekin ijrosini to'laqonli ta'minlash borasida aravamiz siljishi qiyin bo'lmadqa. Biz qo'l uchida bajarilgan hisobotlar bilan ko'p narsalarga erishishimiz mushkul. Yuqoriga yiliga olti million tonnalik paxta topshirish shart emas, bomba misoli portlab chiqadigan ikki yoki uchta ko'pgina og'riqli nuqtalarga yechim bo'ladigan oladigan yoki kitobxonlar uchun yangilik bo'la oladigan tadqiqotlar olib borilsa, bemalol shlyapalarimizni osmonga irg'itsak bo'laveradi.

CHO'RTKESAR

“CHOL VA DENGIZ” asaridan iqtiboslar

Itoatkorlik ruhi qachondan boshlab o'z qalbida qo'nim topgan ustida bosh qotirib o'tirmoqlik uchun chol benihoya soddadil edi. Ammo u o'zining itoatgo'y bo'lib qolganini va bu itoatdan u o'z nomusi, insonlik qadr-qimmatini yo'qotmaganligini bilar edi.



Bir narsa ikki marta hech qachon qaytarilmaydi.

– Men uchun qarilikning o'zi qo'ng'iroq soat. Chollar nega juda barvaqt turisharkan-a? Nahotki, buni qolgan umrlaridan bir kunini bo'lsa ham cho'zish niyatida qilishsa? – Bilmadim. Faqat shuni bilamanki, yoshlar qattiq va ko'p uplashadi.

Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug'ilganim ustida boradi.

Garchi adolatdan bo'lmasa-da, – fikran davom etdi u, – men odam bolasining nimalarga qodir ekanligi va nimalarga dosh berib, chidashi mumkinligini ko'rsatib qo'yaman.

Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan, – dedi u. – Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi.

Umidsizlik – halokat, – deb o'ylardi u. – Buning ustiga, fahmimcha, umidsizlik hatto – gunoh. Nima gunoh-u, nima gunoh emas, deb bosh qotirib o'tirishning hojati yo'q. Busiz ham dunyoda boshni qotiradigan narsalar to'lib-toshib yotibdi. To'g'risini aytganda, men gunoh bo'lgan narsalarni yaxshi tushunmayman.

Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan.

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir
Eldor SHERMONOV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAEV
Ma'rufjon YULDASHEV
O'tkir ISLAMOV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA
Mas'ul kotib:
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yang'och mazlesi, 127/A uy.

Telefon: (71) 230-28-03, (71) 230-28-13
www.dsni.uz; nashriyot@dsni.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – Á3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 540 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 31.05.2021 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.